



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Berdikulova Shaxnoza Ruziqulovna

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali
Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi
mehriddinsher2018@gmail.com*

YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI: BOG'LOVCHILAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada yordamchi so'z turkumlariga kiradigan ko'makchi, bog'lovchi hamda yuklamaning grammatik xususiyatlari, ularning bir-biridan farqi, birbiriga o'xshash bo'lgan tomonlari, kelib chiqishi va qo'llanilishi haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: yordamchi so'z turkumlari, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, sof, vazifadosh.

Аннотация

В данной статье обсуждаются грамматические особенности вспомогательного глагола, союза и сказуемого, их различия, сходство, происхождение и употребление.

Ключевые слова: вспомогательные группы слов, соединительные, вспомогательные, нагрузочные, чистые, целевые.

Annotation

In this article, the grammatical features of the auxiliary, conjunction, and predicate, their differences, similarities, origin, and usage will be discussed.

Key words: auxiliary groups of words, connecting, auxiliary, load, pure, target.



Kirish

Ingliz tilida bog'lovchi, uning o'ziga xosligi, qo'llanilishi, turlari, vazifalari monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalarida batafsil yoritilgan. O'zbek va ingliz tillarida bog'lovchining vazifasi va semantik tipologiyasi o'rganilayotgan tillarda so'zning turkumga mansubligini o'rganishdan boshlanadi. O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham bosh gap bo'laklari ot, sifat, son, olmosh, ergash gap va fe'ldan iborat. Predloglar va bog'lovchilar ikkinchi darajali bo'laklar sifatida alohida guruhlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi predlog o'zbek tilida yuklama vazifasini bajaradi. Darslik va o'quv qo'llanmalarida bog'lovchiga berilgan ta'riflar deyarli bir-biridan farqlanmaydi. Bog'lovchi - mantiqiy fikrni, gapning grammatik qismlarini bog'lash uchun xos bo'lgan gap bo'lagi. Bog'lovchi – sodda gap tarkibidagi bo'laklarni, qo'shma gap bo'laklarini va matndagi gaplarni o'zaro bog'laydigan ikkinchi darajali bo'lak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ingliz tilida gapni mantiqiy jihatdan to'g'ri tuzish, fikrni aniq ifodalash uchun bog'lovchi turlarini bilish va undan o'rinli foydalana olish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ingliz tilida muvofiqlashtiruvchi qo'shma gaplar, korrelyativ bog'lovchilar va tobe bog'lovchilar mavjud. M.G'apporov qo'shma gaplarning ikki turini ajratadi: kelishik va tobe bog'lovchilar. N.A.Myltseva, T.M. Jimalenko ham "Universal murojaat grammatikasi" kitobida qo'shma gaplarni ikki turga ajratadi: muvofiqlashtiruvchi va bo'ysunuvchi bog'lovchilar. Muvofiqlashtiruvchi birikma. M.A.Rustamov va M.I.Asriyanlar va, lekin, yoki, na, uchun, shuning uchun, hali, va/yoki kabi so'zlarni kelishik bog'lovchisi deb hisoblaydi; ular bir grammatik turkumdagi ikki yoki undan ortiq so'z, ibora yoki gaplarni bog'lashini ta'kidlaydilar. Bu manbada so, yet bog'lovchilarining boshqa vazifada kelishi ham qayd etilgan. Va qo'shish ma'nosini bildiradi: qo'shimchani ifodalaganda o'zbek tiliga *-ga (to)*, boshqa holatda va (*and*), bilan, hamda so'zlari orqali tarjima qilinadi: *Olti va ikki sakkizni tashkil etadi. Guruch va kartoshka inson hayoti uchun juda muhim mahsulotlardir. But mano qarama-qarshilik: o'zbek tilida ammo, lekin, biroq* so'zlari tarzida tarjima qilinadi: *Ko'p daraxtlar qishda barglarini yo'qotadi, doim yashil daraxtlar esa yo'q.*

Grammatika to'g'ri gapirish va yozishni o'rgatadigan katta bo'lim hisoblanib, morfologiya va sintaksis kabi qismlarni o'z ichiga oladi. Morfologiya so'z turkumlarini o'rganadi. So'z turkumlariga mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari va alohida olingan guruh so'zlari kiradi. Hozir biz shular ichidan yordamchi so'z turkumlarini o'rganamiz. Yordamchi so'z turkumlari deb, yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi vazifasida qo'llana olmaydigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlarga aytiladi. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar



orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi.

Tahlil va natijalar

Yordamchi so'zlar turkumiga ko'makchi, bog'lovchi va yuklama kiradi. Dastlab ko'makchi va uning turlari bilan yaxshilab tanishib olamiz. Ko'makchi bu- ot va otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar hisoblanadi. Masalan: Qo'li bilan yozdi. Bu yerda ko'makchi "bilan" so'zi bo'lib, u o'zidan oldin kelgan "qo'li" so'ziga bog'lanib kelgan, ikki so'z ya'ni "qo'li bilan" birikmasi bir so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Ko'makchilar sof va vazifadosh kabi turlarga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar- lug'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Ular oz bo'lganligi sababli yodlab olish qiyinchilik tug'dirmaydi. Bilan, uchun, kabi, sari, singari, tufayli, sayin, uzra, qadar, yanglig', orqali, haqida ko'makchilari sof ko'makchilarga misol bo'ladi. Sof ko'makchilarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, ular urg'u olmaydi, urg'u ko'makchidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

2. Vazifadosh ko'makchilar- atash ma'nosini butunlay yo'qotib, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, asli ot, sifat, fe'l, ravish kabi mustaqil so'zlarga tegishli bo'lgan so'zlardir. Hozir ularni ham ko'makchi, ham mustaqil so'z sifatida qo'llab ma'nolarini anglashga harakat qilamiz. Ot turkumiga oid bo'lgan ko'makchilar: old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, ro'para, tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda. Avval ko'makchi sifatida misol keltiramiz: Kechagi o'tilgan ko'makchi mavzusi ustida gap ketyapdi. Bu yerda rostdan ham ko'makchining ustki qismida gap ketayotgani yo'q, ustida so'zi lug'aviy ma'nosini yo'qotgan holda qo'llangan. Endi mustaqil so'z ko'rinishida qo'llaymiz: Stolning ustida qalam turibdi. Nimaning ustida qalam turibdi? Stolning ustida. Ko'rinib turganidek, ikkinchi gapimizda ustida so'zi so'roqqa javob bo'lyapdi ya'ni lug'avi ma'no anglatayapdi. Ravish turkumiga oid ko'makchilar: oldin, avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, asosan, bionan. Gapirmasigdan avval yaxshilab o'yla. Avval o'yla, keyin so'yla. Birinchi gapda ko'makchi -dan kelishik qo'shimchasini olgan so'zdan keyin qo'llanib, bitga so'roqqa javob bo'lmoqda. Keyingi gapda esa alohida ma'no anglatmoqda.

Fe'l turkumiga oid ko'makchilar: deya, deb, atab, qaramay, qarata, qaraganda, degan. Guruhimizga Muxlisa degan qiz keldi. Oyim menga:"Sayoq yurgan tayoq yeydi"-, degan edi. Sifat turkumiga oid ko'makchilar: sababli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga. Ustozimizning so'zlariga mujvofiq dars o'tildi. Bu kitob bilan, Diyora aytgan kitob birbiriga muvofiq kelmayapdi. Ko'makchilarning turlari shu bilan yakunlanadi. Endi esa ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligiga to'xtalamiz.



Ko'makchilar vazifa jihatidan ayrim kelishik qo'shimchalariga o'xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi o'rnida almashib qo'llanadi. Jumladan: Ko'rganini gapirdi - Ko'rgani haqida gapirdi. Onasiga oldi – Onasi uchun oldi. Qalamda yozdi - Qalam bilan yozdi. Televizordan ko'rdi - Televizor orqali ko'rdi. Kabi, sari, yanglig' ko'makchilari esa -dek, -day qo'shimchalari bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Shamol kabi yeldi - Shamolday yeldi. Lekin hamma joyda ham kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar bilan almashtirib bo'lmaydi: Do'stiga yordamlashdi gapida jo'nalish kelishigi qo'llangan bo'lib, uning o'rniga ko'makchini qo'ya olmaysiz, chunki bu uslubiy xatolik hisoblanadi. Shu bilan ko'makchi haqidagi ma'lumotlarimiz o'z nihoyasiga yetdi. So'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deb ataladi. Maysa va daraxtlarga jon kiryapti, chunki bahorning iliq nafasi sezila boshlagan edi.

An'anaviy ravishda so'z turkumlari deb ataladigan leksik-grammatik sinflar jahon tillari tipologiyasining universalligining bir qismidir. Tilshunoslar so'zlarni turkumlashtirishning turli tamoyillarini ishlab chiqdilar. Klassik ingliz grammatikasida bunday mezonlar birinchi navbatda so'zning vazifasi, keyin uning rasmiy xarakteri va nihoyat so'zning ma'nosi olinadi. L.V. Shcherba ushbu mezonlarda leksik ma'no, morfologik xususiyat va sintaktik funktsiyani o'z ichiga oladi, V.V. Vinogradov ushbu belgilar sonini ko'paytiradi va sintaktik vazifasini, morfologik tuzilishi va shaklini, leksik ma'nosini, u yoki bu so'z turkumiga nisbatan shaxsning ifodalash usulini va grammatik kategoriyaning mavjudligi mezonlarini hisoblaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, T. Bushuy ingliz tilidagi so'zlarni tasniflashda umumiy qabul qilingan uchta belgi (ma'no, shakl, vazifa) bilan bir qatorda so'zning uyushiq xususiyatini ham hisobga olishni taklif qiladi. So'z turkumlari soni bo'yicha tilshunoslar o'rtasida bir fikr yo'qligini ta'kidlab, u ingliz tilida otlar odatda ot, sifat, olmosh, son, fe'l, yuklama, bog'lovchi va ergash gaplarga bo'linishini yozadi. P. Long zamonaviy ingliz tilida oltita toifani ajratadi: fe'l, ot, sifat, qo'shimcha, olmosh, mutlaq yoki kesim. T. Bushuy so'z turkumlarining tasnifini umumlashtirib, so'zlarni 11 turkumga bo'lish kerak degan xulosaga keladi va ularning ichki bo'linishlarini quyidagicha tavsiflaydi: 1. Leksik ma'no ifodalovchi mustaqil so'zlar to'plami: ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ergash gap.

Yordamchi so'z turkumlari, xususan, jahon tilshunosligida bog'lovchilar D.A. Shteling, L.V. Shcherba, A.I. Smirnitkiy, I.P. Ivanova, V.V. Burlakova, G.G. Pocheptsov, F.M. Berezin, B.N. Golovin. Ingliz tilida nutqning ikkinchi darajali bo'laklari bir qator tadqiqotlar mavzusi bo'ldi. Ingliz tilidagi bog'lovchilarni o'rganish o'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilshunoslarning e'tiborini tortdi. Bu borada B.N. Aksenenko, L.S. Barxudarov, G.N. Vorontsova, B.A. Ilish, I.K. Irteneva,



T.M.Novitskaya, N.D.Kunin, A.I.Smirnitskiy, B.S.S.I.N.Roymovich, B.S.S.I.Roymovich kabi tilshunos olimlarning tadqiqotlari orqali turlicha qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Yartseva, D.C.Bennet, T.Givon, R.Haddlestone, P.Roberts, A.Gerskovits va boshqalar.Ingliz tilida bog'lovchilar, uning o'ziga xosligi, qo'llanishi, turlari, vazifalari monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalarida batafsil yoritilgan.

Bog'lovchilar gapda qo'llanilishiga ko'ra ikki xil: yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilar va takrorlangan holda qo'llaniladigan bog'lovchilar. Yakka holda qollaniluvchi bog'lovchilarga va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, balki bog'lovchilari kiradi. Takrorlangan holda qo'llaniluvchi bog'lovchilarga bir bir, goh goh, ba'zan ba'zan, yo yo, yoki yoki kabilar kiradi. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilargabo'linadi. Teng bog'lovchilar so'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng munosabatda bog'laydi va ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni qay tarzda ifodalashiga ko'ra biriktiruv bog'lovchilari(va, ham, hamda), zidlov bog'lovchilari(ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog'lovchilari(yo, yoki, yo...yo, yoki...yoki, goh...goh, ba'zan...ba'zan, bir...bir) inkor bog'lovchisi(na...na) kabi turlarga bo'linadi. Teng bog'lovchilardan eng e'tibor talab qiladigani bu inkor bog'lovchisi, chunki u inkor yuklamasi bo'lib ham keladi. Bog'lovchi vazifasini bajarganda, gapning kesimi bo'lishli shaklda keladi. Yuklama vazifasini bajarganda esa, gapning kesimi inkor shaklda bo'ladi. Bog'lovchilarning ikkinchi turi ergashtiruvchi bog'lovchilar hisoblanib, ularning turlari quyidagicha: aniqlov bog'lovchilari(-ya'ni, -ki), sabab bog'lovchilari(chunki, negaki), shart bog'lovchilari(agar, garchi, garchand, mabodo, basharti), chog'ishtiruv bog'lovchilari(go'yo, go'yoki, xuddi), maqsad bog'lovchisi(toki). Bog'lovchilar kelib chiqishiga ko'ra, sof va vazifadosh kabi bo'linadi. Sof bog'lovchilar faqat bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir: va, lekin, chunki, agar.

Vazifadosh bog'lovchilar esa, boshqa turkumlarga mansub bo'lib, o'rni bilan bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar yuklama deb yuritiladi. Yuklamalarning tuzilishi, ma'no jihatdan turlari, yozilishi, sof hamda vazifadoshligi o'rganiladi. Sof yuklamalar faqat yuklama guruhiga kiradigan so'zlar sanaladi. Ular: faqat, hatto, -mi, -ku kabilardir. Vazifadosh yuklamalar boshqa vazifalarda ham qo'llaniladigan yuklamalardir. Aytmoqchi bo'lgan narsam shuki, ko'makchilarda sof yoki vazifadosh deb turlarga bo'linadi. Unda sof ko'makchilar qotib qolgan va sanoqlidir. Bog'lovchilarda sof bog'lovchilar faqat bog'lovchi bo'libgina keladigan so'zlar. Yuklamalarda ham xuddi shunday. Ko'makchilarda bilan so'zi sof hisoblanadi, bog'lovchida esa vazifadosh. Bundan kelib chiqadiki, yordamchi so'z turkumlari deya umumlashtiriladigan bir tipdagi turlar birbiriga umuman mos emas. Bir qarashda, o'zlashtirish, tushunish va eslab qolish ham nihoyatda qiyin.



Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, bizning grammatikamiz ham oson, ham qiyin. Ba'zi ma'lumotlar oson tushuntirilgan, ba'zi ma'lumotlar juda-juda qiyin. Hozirgina ko'rib o'tgan yordamchi so'z turkumlarimizning ichidagi o'zgachaliklar ham bizni hayratda qoldiradi. Mening fikrimcha, bir tipga kiruvchi so'z turkumlarining tuzilishi, turlarini bir xil nomlab o'zgina bo'lsa ham osonlashtirish darkor. Misol sifatida ko'makchilarning sof yoki vazifadoshligi uning turlari hisoblanadi. Bog'lovchining sof yoki vazifadoshligi esa kelib chiqishiga ko'ra turi deya belgilanadi. Yuklamalarda berilmagan ham, oddiygina qilib "Yuklamalar ham sof yoki vazifadosh bo'lishi mumkin" deyilgan. Yoshlar chet tillarni o'rganganlari yaxshi, albatta. Lekin o'z ona tilimizni birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak. Uning rivojlanishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Mahmudov Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik); T. Fan; 2009- yil, 87- bet;
2. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova Hozirgi o'zbek adabiy tili; Toshkent; 2013-yil, 103-bet;
3. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi; O'quv qo'llanma" O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi; 2006- yil, 44- bet;
4. Аксененко Б.Н. Exercises in English Prepositions; – СПб.: СПбГУ, 2012. - 148 с.;
5. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии английского языка; – М., 1975. – 156 с.
6. Бархударов Л.С. Язык и перевод; Москва, 1975.– С. 18; Воронцова Г. Н. "Очерки по грамматике английского языка; Москва, 1976, - 69 с.